

**CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLASHGAN
MUNOSABATLARDA NIHOHDAN AJRATISHNING HUQUQIY
TARTIBGA SOLINISHI**

Sobirov Muhammadrasul Dilshod o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

21-22 guruh o'quvchisi

Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

Tel.: +99899 841 00 96, e-mail: salimovadiera146@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida shu mamlakatda yoki xorij davlatlarida tuzilgan nikohdan ajratish masalalari qanday hal etilishi yoritib berilgan. Ushbu munosabatlar xalqaro va mintaqaviy konvensiyalar asosida qay tartibda aniqlanishi, chet el tajribasida qanday shart va sharoitlarga asoslanib ijobiy hal etilishi masalalari aytib o'tilgan. Milliy huquqimizda nikohdan ajratishda lex fori qo'llagan holda amalga oshirilishining ijobiy va salbiy jihatlari ham ta'kidlab o'tilgan.

Asosiy tushunchalar: Chet el elementi, lex fori, nikohdan ajratish, nikohni tan olish, er-xotin, lex domicilii, lex patrie, “oqsoq” munosabat, separasiya.

Xalqaro xususiy huquq – turli davlatlarning fuqarolik huquqi tizimlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi bo'lib, unda davlatlararo oilaviy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega. Nikoh va nikohdan ajratish xalqaro xususiy huquqning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Chet el elementi bilan murakkablashgan nikohdan ajratishda Oila kodeksi 236-moddasiga binoan, bir tomonlama kollizion norma – lex fori belgilangan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu davlat fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida o'rnatilgan tartib va shartlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston hududida ajratilgan nikoh chet mamlakatda tan olinmasligi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya oila qonunchiligiga ko'ra nikohdan ajratishdan oldin er-xotinlarning bir necha yil davomida alohida yashagan bo'lishi kerakligi (separasiya) sababli, Buyuk Britaniya fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududida sud tartibida ajratilgan nikohi tan olinmasligi mumkin. X.R.Rahmonqulovning fikricha, “ikki chet el fuqarosi nikohdan O'zbekistonda ajrashgan bo'lsa, uni tan olish yoki tan olmaslik masalasi tegishli

davlatning qonunlariga va fuqarolik-prosessual qonunlariga rioya qilingan holda ko'rib ajratilgan bo'lsa, u haqiqiy deb hisoblanadi"¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan chetda yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, uning qaysi mamalakat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralish huquqi mavjud. Ushbu moddaga binoan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tegishli organda amalga oshirilgan taqdirda, chet davlat qonunlaridagi talablar asosida bajarilishi shart. Aks holda, bunday ajrim O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb tan olinmaydi.

Nikohdan ajralganlarning har ikkalasi ham chet el fuqarolari bo'lganda uning O'zbekistonda yuridik kuchga ega bo'lishi uchun o'sha davlat qonunchiligiga rioya etilganligi muhimdir.

Nikohdan ajratishda chet el elementi asosan ikki holatda mavjud boladi:

-er-xotinning turli fuqarolikka egaligi;

-bir fuqarolikka ega er-xotinlarning boshqa mamlakatda nikohdan ajrashmoqchiligi².

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksidan farqli o'laroq, ko'plab mamlakatlar qonunchiligida nikohdan ajratish asoslari belgilab berilgan va bu asoslar davlatlar orasida farqlanadi. Masalan, 1970- yilda Italiyada qabul qilingan qonunga binoan er-xotindan birining uzoq muddatli jinoiy jazoga tortilishi; nikoh hayotiga layoqatsizligi; separatsiya shartlari bo'yicha besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida alohida yashash; xorijda nikohdan ajralish [nikohdan ajralish asoslari hisoblanadi¹.

Buyuk Britaniyada 1973-yilda qabul qilingan "Nikoh masalalari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra nikohdan ajralish asoslari:

- 1) Javobgarning xiyonati va bu holat da'vogarning javobgar bilan birga hayot kechirishiga to'sqinlik qilsa;
- 2) Da'vogarning javobgar bilan kelgusida birga yashashiga monelik qiladigan xatti-harakati;
- 3) Javobgar tomonidan davogar er(xotin)ning sababsiz (asossiz) ravishda ikki yildan kam bolmagan muddatga tashlab ketishi (yani alohida yashash maqsadida er(xotin)ning roziligisiz adolatsiz ravishda oiladan chiqib ketishi);

¹ O'zbekiston Respublikasi Oila kodesiga sharhlar. – T.: "Adolat", 2000. – B.426.

² Raxmonqulova N. X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya // 2011. - B.109.

¹¹ Ануфриева Л.П. Международное частное право. –С.583.

4) Er-xotinning ikki yil davomida birgalikda hayot kechirmasligi va har ikkala tomonning ajralishga roziligi;

5) Er-xotinning besh yil davomida alohida yashaganligi sanaladi¹.

Chet el elementi ishtirok etgan nikohdan ajratishda muammo faqat moddiy huquqni aniqlash bilangina chegaralanib qolmay, protsessual huquq bilan bog'liq muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Ikki davlat qonunlari tutashganda qaysi qonunni tanlash muammosi – moddiy, va qaysi davlat sudloviga taalluqliligini aniqlash esa – protsessual muammoni yuzaga keltiradi. Ushbu masala anglo-sakson huquq oilasida *lex domicilii* – yashash joy qonuni, romano-german huquq oilalarida ko'p hollarda *lex patrie* – fuqarolik bilan tartibga solinadi. Masalan, 1993-yilgi Minsk konvensiyasining 28, 29-moddalari nikohdan ajratish masalalarida ishning qaysi mamlakat sudloviga taalluqliligini belgilashda quyidagi holatlardan kelib chiqadilar:

– nikohdan ajratishga doir ishni ko'rishda er-xotinlarning fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakatning muassasalari vakolatlidir;

– agar ariza bilan murojaat etish vaqtida er-xotinlarning ikkalasi ham boshqa mamlakat hududida yashasalar, nikohdan ajratish ishini ko'rishga ushbu mamlakat muassasalari ham vakolatlidirlar. Ya'ni er-xotinlar ushbu mamlakat sudiga ham murojaat etishlari mumkin;

– agar er-xotinlar turli mamlakat fuqarolari bo'lsalar, nikohdan ajratish ishini er-xotinlarning ikkalasi yashayotgan mamlakat muassasalari ko'rishga vakolatlidir;

– agar er-xotinlar turli mamlakatlar hududida yashayotgan bo'lsalar, nikohdan ajratish ishini er-xotinlar yashayotgan ikkala mamlakatning muassasalari ko'rishga vakolatlidir³.

Ko'plab mamlakatlar, er-xotinlarning umumiy fuqarolik qonuni (*lex patrie*) yoki umumiy yashash joy qonunini (*lex domicilii*) qo'llaydilar. Masalan, Avstriya oila qonunchiligiga ko'ra, chet el elementi ishtirokidagi ishlari quyidagi mamlakat qonunchiligiga binoan tartibga solinadi:

- umumiy, uning mavjud emasligida esa, oxirgi umumiy shaxsiy qonuniga binoan, agar er-xotinlardan biri uni saqlab qolgan bo'lsa;

- aks holda – er-xotinlarning ikkisi ham oddiy turar joyiga ega bo'lgan mamlakat qonunchiligiga binoan, agar u mavjud bo'lmasa, oxirgi umumiy turar joyiga ega bo'lgan mamlakat qonunchiligiga binoan, agar er-xotinlarning biri uni saqlab qolgan bo'lsa⁴.

Ispaniya oila qonunchiligiga ko'ra:

- er-xotinlarning umumiy fuqaroligi;

¹² Lowe N., Douglas G. Bromley's Family Law. 9th ed. Butterworths. London, Edin., Dublin. 1998. –P.251.

³ Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – B.229.

⁴ Международное частное право: Иностранное законодательство / Предисл. А.Л.Маковского; сост. И научн. ред. А.Н.Жильцов, А.И.Муранов. –М.: Статут, 2000. –С.161.

- agar umumiy fuqaroligi bo'lmasa, oddiy turar joyi;
- agar er-xotinlar turli mamlakatlar hududida yashasalar, ispan qonuni qo'llanadi³.

Portugaliya oila qonunchiligida esa:

- umumiy fuqarolik qonuni;
- umumiy fuqarolik mavjud bo'lmagan hollarda, umumiy turar joy qonuni;
- uning mavjud emasligida esa er-xotinning oilaviy hayoti eng uzviy aloqada bo'lgan mamlakat qonuni qo'llaniladi.

Chexiya qonunchiligiga ko'ra, nikohdan ajrashmoqchi bo'lgan er-xotinlarga nisbatan umumiy fuqarolik qonuni, turli mamlakat fuqarolariga nisbatan esa Chexiya qonuni qo'llanadi⁵.

Anglo-sakson huquq tizimi amal qiluvchi mamlakatlardan Venesuela misolida ko'radigan bo'lsak, nikohdan ajratish ishlarida er-xotinning yashash joyi qonunchiligi qo'llaniladi. Da'vo bilan murojaat etgan er(xotin)ning yashash joyini o'zgarishi faqatgina biror-bir mamlakatda oddiy turar joyiga ega bo'lish maqsadida kelganidan keyin bir yil o'tgach huquqiy oqibat keltirib chiqaradi⁶.

Xalqaro xususiy huquqning amerika doktrinasi ingliz doktrinasidan avval yuzaga kelgan bo'lib, Amerika sudlari tomonidan turli shtatlar qonunlari o'rtasidagi kolliziyalarni bartaraf etish amaliyotidan kelib chiqqan. Amerika oila qonunchiligida esa Angliyadan farqli ravishda *lex fori* qo'llaniladi. Bunga sabab esa amerikaliklar qatlami turli millatli va turli fuqaroliklardan tarkib topganligini hisobga olib, davlatning yagona qonunchiligiga bo'ysundirishda deb o'ylaymiz.

Chet el elementi bilan murakkalashgan nikohlardan ajratishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida faqatgina sud qonuniga, ya'ni *lex fori*ga rioya etishning belgilanganligi ushbu munosabatlarning chet mamlakatlarda tan olinmasligi hamda "oqsoq" munosabat va natijada chalkash holatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, Fransiya fuqarosi bilan O'zbekiston Respublikasida nikohdan ajralgan O'zbekiston fuqarosining nikohdan ajralganlik fakti Fransiya qonunchiligi bo'yicha tan olinmasligi mumkin. Natijada ushbu fuqarolarning nikohi O'zbekiston hududida tugatilgan, Fransiyada esa hali ham qonuniy kuchga ega bo'lib hisoblanadi. Bu holat nafaqat fransuz fuqarosining balki O'zbekiston fuqarosining ham huquqlarining buzilishiga olib keladi⁷.

O'zbekiston Respublikasida nikohdan ajratishning huquqiy tartibga solinishi milliy huquq va xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan muhim masalalardan biridir. Milliy qonunchilik nikohdan ajratishning aniq tartibini belgilagan bo'lsa, xalqaro xususiy huquq ushbu jarayonni chet el elementlari bilan bog'liq hollarda tartibga soladi. O'zbekistonning xalqaro shartnomalarga qo'shilishi esa, bu jarayonni yanada

⁵ O'sha yerda. – B.608.

⁶ O'sha yerda. – B.254.

⁷ Raxmonqulova N. X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya // 2011. - B.130.

osonlashtiradi va taraflarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2000.
3. Raxmonqulova N. X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya // 2011. - B.4.
4. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan vuriist, prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti // 2017. - B.170.
5. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. – B.226.
6. Ануфриева Л.П. Международное частное право. –С.583.
7. Международное частное право: Иностранное законодательство / Предисл. А.Л.Маковского; сост. И научн. ред. А.Н.Жильцов, А.И.Муранов. –М.: Статут, 2000. –С.161.
8. Lowe N.,Douglas G. Bromley'sFamily Law.9th ed.Butterworths. London, Edin., Dublin.1998. –P.251.